

AKSIYA QOIDALARI
"Kino uchun 100% keshbek"

Toshkent sh. 17.09.2025

I. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Ushbu Qoidalar "PAYME" AJ (**Payme**) va "TBC Bank" ATB (**Bank**) tomonidan tashkil etilgan, bundan keyin "**Aksiya**" deb ataladigan, Payme mobil ilovasi va Bank tomonidan chiqarilgan Salom Card debet kartasini ommalashtirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi qo'shma tadbirda ishtirok etish shartlari, o'tkazish tartibi, shuningdek, uni tashkil etish va o'tkazishning boshqa muhim holatlarini tavsiflaydi.
- 1.2. Aksiya tashkilotchilari "Payme" AJ ("Payme" savdo belgisi egasi), manzil: 100015, Toshkent shahri, Fidokor ko'chasi, 10B-uy va "TBC Bank" ATB, manzil: 100015, Toshkent shahri, Fidokor ko'chasi, 10B-uy hisoblanadi, bundan keyin matnda "Tashkilotchi" deb yuritiladi.
- Payme'ning kecha-kunduz ishlaydigan qo'ng'iroq markazi:
 1350
- Bankning kecha-kunduz ishlaydigan qo'ng'iroq markazi:
 1150
- 1.3. Aksiya ishtirokchisi 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin, Aksiya tashkilotchilarining xodimlari (Tashkilotchilar bilan mehnat shartnomasini tuzgan shaxslar) hamda ular bilan affillangan jismoniy shaxslar bundan mustasno.
- 1.4. Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yin hisoblanmaydi va Aksiya ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq mulkiy xatarlarni zimmasiga olmaydi. Aksiyani o'tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan to'lov kiritish bilan bog'liq emas va Aksiyaning sovrin jamg'armasi faqat Tashkilotchi mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.
- 1.5. Qo'llaniladigan atamalar:
- Ishtirokchi** - ushbu Qoidalarining 2.3-bandida belgilangan talablarga javob beradigan jismoniy shaxs.
- Payme ilovasi** - mobil qurilmalarga o'rnatish uchun mo'ljallangan va Google Play hamda App Store orqali mavjud bo'lgan dasturiy ta'minot bo'lib, boshqa imkoniyatlar qatori kino chiptalarini xarid qilish imkonini beradi.
- Keshbek** - Aksiya doirasida Bank tomonidan Ishtirokchiga ushbu Qoidalariga muvofiq Payme ilovasida Karta yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar uchun hisoblanadigan shartli birlik bo'lib, 1 birlik 1 so'mga teng va tegishli karta hisobiga o'tkaziladi.
- Salom Card debet kartasi / Karta** - Bank tomonidan chiqarilgan karta bo'lib, uning egasiga emitent tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq tegishli karta hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida to'lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi.
- Kinoseans** - Aksiya muddati davomida har chorshanba kuni O'zbekiston Respublikasi hududidagi kinoteatrlarda o'tkaziladigan kinofilmni ommaviy namoyish etish tadbiri.

II. AKSIYA SHARTLARI

- 2.1. Aksiya mukofot jamg'armasi**
Mukofot jamg'armasi Tashkilotchi mablag'lari hisobidan shakllantirilib Aksiyani o'tkazish doirasida Tashkilotchi Ishtirokchiga ushbu Qoidalar shartlariga mos keladigan Kino seanslari chiptalarini muvaffaqiyatli xarid qilgan summaning 100 (yuz) foizi miqdorida keshbek taqdim etadi.
- 2.2. Aksiya muddati:**
Boshlanish sanasi: 2025-yil 17-sentyabr soat 00:00 da.
Tugash sanasi: 2025-yil 31-dekabr soat 23:59 da.
- 2.3. Aksiyada ishtirok etish shartlari:**
Aksiyada ishtirok etishni xohlagan har bir shaxs quyidagi barcha shartlarni bir vaqtning o'zida bajarishi shart:
- a) Payme mobil ilovasida ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi bo'lishi, Bank mijozi sifatida tasdiqlangan bo'lishi, shuningdek, ushbu ilovada ro'yxatdan o'tgan, Bank tomonidan mazkur shaxs nomiga chiqarilgan va Aksiya o'tkazilayotgan paytda amal qilayotgan Salom Card faol debet kartasiga ega bo'lishi;
- b) Mobil qurilmaga Payme mobil ilovasining eng so'nggi dolzarb versiyasi o'rnatilgan bo'lishi;

- c) Xarid qilish sanasi va tegishli Kinoseans o'tkaziladigan sana Aksiya muddati davomida bir xil chorshanbaga to'g'ri kelishi sharti bilan Kinoseans chiptalarini Karta yordamida sotib olishi.

2.4. Aksiyani o'tkazish tartibi:

Ushbu Qoidalarining 2.3-bandida ko'rsatilgan shartlarni bajargan Aksiya ishtirokchilariga Bank Payme ilovasida Karta yordamida to'langan Kinoseans chiptalari xarid summasining 100 (yuz) foiziga teng miqdorda keshbek hisoblaydi. Keshbek hisoblash 2.3-bandda ko'rsatilgan harakatlar amalga oshirilgan oydan keyingi kalendar oyida amalga oshiriladi.

Keshbek miqdori har bir ishtirokchi uchun oyiga 1 000 000 (bir million) so'm bilan cheklangan. Ushbu Aksiya doirasida keshbek hisoblash shartlari mazkur Qoidalar, shuningdek, Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Salom Card debet kartasiga nisbatan amal qiladigan sodiqlik dasturi tariflari va shartlari bilan tartibga solinadi.

Kinoseans chiptalari qaytarilganda yoki bekor qilinganda keshbek hisoblanmaydi. Tashkilotchilar Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini tekshirish maqsadida kinoteatrlar bilan hamkorlik qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

III. BOSHQA QOIDALAR

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining www.tbcbank.uz va www.payme.uz saytlarida joylashtirilgan Aksiya qoidalarini to'liq va so'zsiz qabul qilganligini, shuningdek, Ishtirokchi Tashkilotchilar tomonidan o'tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar hamda aksiyalarda qatnashish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish va marketing, statistik yoki boshqa tadqiqotlarni o'tkazish maqsadida o'zining Payme va Bank mobil ilovasida ro'yxatdan o'tishda taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli Qonuniga muvofiq qayta ishlashga rozilik berganligini anglatadi.
- 3.2. Tashkilotchi Ishtirokchi bilan turli aloqa vositalari, jumladan pochta jo'natmalari, Ishtirokchining elektron pochta manziliga (e-mail) xabarlar yuborish, mobil telefonga SMS-xabarlar jo'natish orqali bevosita aloqa o'rnatishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida tegishli ma'lumotlarni yuborishi mumkin.
- 3.3. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi o'z ixtiyori va manfaatlarini ko'zlab, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda Tashkilotchiga (O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son Qonuniga rioya qilish sharti bilan) o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi. Bu qayta ishlash jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, tarqatish, taqdim etish, uzatish (shu jumladan transchegaraviy uzatish), shaxssizlantirish, bloklash va yo'q qilish. Bu jarayonlar Tashkilotchi va uning kontragentlari/Hamkorlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda avtomatlashtirish vositalari va ma'lumotlar bazalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, boshqa dasturiy vositalar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlari Tashkilotchi va uning kontragentlarining ichki tarmog'i hamda Internet tarmog'i orqali uzatilgan holda yoki uzatilmagan holda qo'lda, avtomatlashtirilgan va aralash usulda qayta ishlanishi mumkin. Qo'llaniladigan qayta ishlash usullari, jumladan (cheklovlarsiz), ma'lumotlar bazasini zarur mezonlar bo'yicha segmentlashni ham o'z ichiga oladi.
- 3.4. Ushbu rozilik Ishtirokchi tomonidan o'zining shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur yoki maqsadga muvofiq bo'lgan har qanday harakatlarni amalga oshirishga beriladi. Bu Ishtirokchiga tegishli har qanday ma'lumotlarga, jumladan, quyidagilar bilan cheklanmagan holda: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug'ilgan yili, oyi, sanasi (va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda - shaxsni tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari (pasport raqami, berilgan sanasi, bergan organ nomi, shuningdek ro'yxatdan o'tish to'g'risidagi ma'lumotlar), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlarga taalluqlidir.
- 3.5. Ushbu Qoidalariga muvofiq Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga jalb etiladigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi Ishtirokchi tomonidan Tashkilotchilarga beriladi va qo'shimcha kelishuvni talab qilmaydi.
- 3.6. Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

- 3.7. Ushbu Qoidalar buzilgan, Aksiya shartlarini bajarishdan bo'yin tovlash va keshbek olish maqsadida nohalol harakatlar sodir etilgan va/yoki boshqa suiiste'molliklar aniqlangan taqdirda, Tashkilotchi Ishtirokchini Aksiyada ishtirok etishdan so'zsiz chetlatishga haqli. Bunda Tashkilotchi ko'rsatilgan Ishtirokchi(lar)ga nisbatan o'z xatti-harakatlarini izohlash majburiyatiga ega emas.
- 3.8. Ishtirokchi xatolar, texnik nosozliklar, shuningdek Keshbekning noto'g'ri hisoblanishi yoki umuman hisoblanmaganligini aniqlasa, vaziyatni o'rganish va hal etish maqsadida bu haqda Tashkilotchini zudlik bilan xabardor qilishi shart.
Keshbekning noto'g'ri hisoblanishi aniqlangan taqdirda, Tashkilotchi bir tomonlama tartibda tuzatish kiritish, jumladan ilgari noto'g'ri hisoblangan summani hisobdan chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi.
Agar ushbu badda ko'rsatilgan uzilishlar Ishtirokchining insofsiz yoki e'tiborsiz harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan ko'rsatilgan holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar bermaganligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, Tashkilotchi buning oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.
- 3.9. Aksiya ishtirokchisi o'zi haqidagi noaniq va/yoki noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha salbiy oqibatlar xavfini to'liq o'z zimmasiga oladi.
- 3.10. Aksiya ishtirokchisi istalgan vaqtda Aksiya tashkilotchilariga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.
- 3.11. Tashkilotchi ushbu Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq Aksiya ishtirokchisida yoki uchinchi shaxsda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hech qanday xarajat va sarf-harajatlarni qoplamaydi.
- 3.12. Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturlarning ta'siri, shuningdek Tashkilotchilarning dasturiy va/yoki apparat kompleksiga ruxsatsiz kirish va/yoki uni ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning g'arazli xatti-harakatlari oqibatida majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 3.13. Tashkilotchi istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan xabardor qilmasdan, tegishli ma'lumotlarni www.tbcbank.uz va www.payme.uz saytlariga joylashtirish orqali ushbu Qoidalariga so'zsiz o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 3.14. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Tinch yo'l bilan kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.